

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRINING
BUYRUG‘I

**SUG‘URTALOVCHI VA QAYTA SUG‘URTALOVCHINING INVESTITSIYA
FAOLIYATI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 16-iyulda ro‘yxatdan
o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1982]**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **qarorining** (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 15-son, 158-modda) ijrosini ta‘minlash maqsadida buyuraman:

1. Sug‘urtalovchi va qayta sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi **nizom** ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab o‘n kun o‘tgandan keyin kuchga kiradi.

Vazir R. AZIMOV

Toshkent sh.,
2009-yil 3-iyul,
68-son

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009-yil 3-iyuldagi 68-son **buyrug‘iga**
ILOVA

Sug‘urtalovchi va qayta sug‘urtalovchining investitsion faoliyati to‘g‘risida

NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **qaroriga** (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 15-son, 158-modda) muvofiq sug‘urtalovchi va qayta sug‘urtalovchining investitsiya faoliyatiga oid talablarni belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom davlat ijtimoiy sug‘urta tashkilotlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

2. Mazkur Nizom maqsadlarida qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar:

diversifikatsiya — mablag‘lar yoki ulardan olinadigan daromadlarning ehtimol tutilgan yo‘qotishlar tavakkalchiligini pasaytirish maqsadida sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) mablag‘larining turli qo‘yilma obyektlari o‘rtasida taqsimlanishi;

Oldingi tahrirga qarang.

(2-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2020-yil 10-sentabrdagi 39-sonli buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 1982-1, 25.09.2020-y.) asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.09.2020-y., 10/20/1982-1/1321-son)

investitsiyalar — foyda olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga joylashtiriladigan sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) har qanday shakldagi qo‘lga kiritilgan yoki nazorat qilinadigan aktivlari;

investitsiya faoliyati — sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui;

likvidlik — sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) o‘z majburiyatlarini bajarishi uchun mablag‘larining nominal qiymatini saqlab qolgan holda ularni pul mablag‘lariga tezlik bilan konversiyalash imkoniyati;

mas‘ul shaxs — investitsiya faoliyatini tashkil etish bo‘yicha majburiyat yuklatilgan sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) xodimi;

foydalilik — sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) investitsiyalaridan daromad olishi;

qaytarilish — sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) mablagʻlarini joylashtirishning aniq sharoitlarida investitsion tavakkalchilikni eng past darajaga keltirish orqali imkon qadar yuqori xavfsizligini taʼminlash. Ushbu holatda investitsion tavakkalchilik deganda investitsiyalardan olingan haqiqiy foyda moʻljallangan foydadan past boʻlishi ehtimoli tushuniladi.

II. Investitsiya faoliyati obyektlari

3. Quyidagilar sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) investitsiya faoliyatining obyektlari hisoblanadi:

Oʻzbekiston Respublikasining davlat qimmatli qogʻozlari;

xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qogʻozlari;

bank sertifikatlari (depozit sertifikatlari);

kredit tashkilotlariga qoʻyilgan omonatlar (depozitlar);

koʻchar va koʻchmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar)

hamda ularga doir huquqlar;

yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi;

Oldingi tahrirga qarang.

Oʻzbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi hududida chiqarish va muomalaga kiritishga ruxsat berilgan, yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan qimmatli qogʻozlar bozorida savdoni tashkil etish boʻyicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga (ruxsatnomaga) ega boʻlgan xorijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan hamda qimmatli qogʻozlar bozorida muomalaga qoʻyilgan qimmatli qogʻozlar;

(3-bandning sakkizinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrugʻi (roʻyxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

Oldingi tahrirga qarang.

ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari ustav kapitalida ulushli ishtirok etish, shuningdek ipoteka qimmatli qogʻozlarini sotib olish;

lizing tashkilotlariga qarzlari (moliyaviy yordam);

(3-band Oʻzbekiston Respublikasi moliya vazirining 2020-yil 10-sentabrdagi 39-sonli buyrugʻiga (roʻyxat raqami 1982-1, 25.09.2020-y.) asosan xatboshilar bilan toʻldirilgan — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 25.09.2020-y., 10/20/1982-1/1321-son)

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilik hujjatlariga muvofiq chiqarilgan korporativ obligatsiyalar.

(3-band Oʻzbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 13-dekabrdagi 76-sonli buyrugʻiga (roʻyxat raqami 1982-2, 22.12.2021-y.) asosan xatboshi bilan toʻldirilgan — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 22.12.2021-y., 10/21/1982-2/1180-son)

Oldingi tahrirga qarang.

4. Sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) investitsiyalarni qonunchilik hujjatlariga zid boʻlmagan investitsiya faoliyatining boshqa obyektlariga ham amalga oshirishi mumkin.

(4-band Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrugʻi (roʻyxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

Oldingi tahrirga qarang.

5. Barpo etilishi va foydalanilishi qonunchilik hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya kiritish taqiqlanadi.

(5-band Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrugʻi (roʻyxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

III. Investitsiya faoliyatiga oid asosiy talablar

6. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) o'z aktivlarini qaytarilish, likvidlik, diversifikatsiya va foydalilik prinsiplari asosida joylashtirishi lozim.

7. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagi asosiy shartlarga rioya etishga majbur:

investitsiyalar va ular bilan bog'liq tavakkalchiliklarni malakali boshqarish;
axborotlarning shaffofligi va konfidensialligini ta'minlash.

8. Investitsiyalar va ular bilan bog'liq tavakkalchiliklarni malakali boshqarish sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatiladigan investitsiya siyosatini tasdiqlash;

zarurat bo'lganda, investitsiya faoliyatini tashkil etishga investitsiya maslahatchilari, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar va qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchilarini jalb qilish;

investitsiyalash obyektlarini tahlil qilish va olingan daromadlilikni davriy baholash va h. k.

9. Axborotlarning shaffofligi va konfidensialligi quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

Oldingi tahrirga qarang.

axborotni qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq oshkor etish;

(9-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 20-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

amalga oshirilgan investitsiyalar to'g'risida ta'sischi oldida har yil hisobot berish;

sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) xodimlari va boshqaruv organlari a'zolari tomonidan xizmat va maxfiy axborotdan sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya siyosatiga muvofiq foydalanish.

10. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga majbur:

a) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 22-apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi **nizom**" (ro'yxat raqami 1806, 2008-yil 12-may) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 20-21-son, 178-modda) bilan belgilangan sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid talablarga va O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi **nizom**" (ro'yxat raqami 1882, 2008-yil 15-dekabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 52-son, 529-modda) bilan belgilangan sug'urta zaxiralarini joylashtirish tartibiga oid talablarga rioya qilish;

b) moliyaviy, texnik va axborot resurslari mavjudligini ta'minlash;

v) mablag'larni investitsiya qilish maqsadga muvofiqligi haqida mas'ul shaxsning yozma xulosalarini olish;

g) mas'ul shaxsning ushbu Nizom bilan belgilangan malakaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash.

11. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsiya faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini tashkil etishi lozim.

IV. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish tartibi

12. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) joriy moliyaviy yilning 20-dekabriga qadar keyingi moliyaviy yil uchun sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) Kuzatuv kengashi yoki boshqa vakolatli organi tomonidan tasdiqlanadigan investitsiya siyosatini har yil ishlab chiqadi.

13. Investitsiya siyosati quyidagi asosiy elementlarni nazarda tutishi lozim:

investitsiya faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarning tahlili;

sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining investitsiya faoliyati obyektlari bo'yicha uzoq muddatli taqsimlanishi;

sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining investitsiya faoliyati obyektlari, geografik hududlar va iqtisodiyot sohalari bo'yicha taqsimlanish limitlari;

investitsiya faoliyatining ma'lum bir obyektlariga investitsiya qilishning cheklovlari va taqiqlari;

mas'ul shaxslarning qarorlarni qabul qilishdagi vakolat chegaralari va sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlarini investitsiya qilishdagi cheklovlarini belgilash;

mas'ul shaxslarga qo'shimcha malakaviy talablar;

mas'ul shaxs tomonidan ekspertiza o'tkazish va xulosa tayyorlash tartibi;

investitsiya faoliyati bilan bog'liq yomon sharoitlar oqibatlarini yumshatishga oid favqulodda holatdagi tadbirlar rejasi.

14. Mablag'larni investitsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar mas'ul shaxs zarur hujjatlarni (biznes-reja, hisobotlar va h. k.) yig'adi va mablag'larni investitsiya qilish maqsadga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o'tkazadi. Mas'ul shaxs ekspertiza natijasi bo'yicha zarur hujjatlarni olgan kundan boshlab bir haftalik muddat ichida o'zining yozma xulosasini tayyorlaydi.

15. Mas'ul shaxs o'z xulosasining to'g'riligi, obyektivligi va asosiligi uchun shaxsan javob beradi.

16. Investitsiya qaytarilishi muddatini kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash masalasi faqatgina yetarli asos bo'lgandagina amalga oshiriladi.

17. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsiya obyektlari va turlari bo'yicha taqsimlanishi, investitsiyalarni joylashtirish va tugatish sanalari, foiz stavkalari, olingan dividendlar (foizlar), bitimlar bo'yicha foydalar aks ettirilgan investitsiyalar bo'yicha ichki hisobot yuritishi lozim.

18. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) quyidagilarni o'z ichiga olgan qarorlar qabul qilish va investitsiya faoliyatidagi cheklovlar bo'yicha majburiyatlarning turli bo'linmalari o'rtasida taqsimlanishini ta'minlash uchun tegishli nazoratni amalga oshirishi lozim:

a) mas'ul shaxs buxgalteriya operatsiyalarini o'tkazmasligi, pul mablag'larini qabul qilmasligi, buxgalteriya provodkalari solishtirmasini tasdiqlamasligi va amalga oshirmasligi lozim;

b) investitsiya faoliyatini tashkil etish hujjatlar bilan tasdiqlangan hamda birlamchi hujjatlar va buxgalteriya yozuvlari bilan solishtirilgan bo'lishi shart.

19. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) har yili o'z investitsiya faoliyatining qonunchilik shartlari va talablari va tasdiqlangan investitsiya siyosatiga rioya etilishi yuzasidan ichki nazoratni amalga oshirib borishi shart.

20. Ichki nazoratni olib borish natijalari bo'yicha Kuzatuv kengashi yoki sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) boshqa vakolatli organiga taqdim etiluvchi hisobot tayyorlanadi.

V. Mas'ul shaxsga qo'yiladigan malaka talablari

21. Mas'ul shaxs quyidagi malaka talablariga mos kelishi lozim:

Oldingi tahrirga qarang.

a) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida olingan oliy (iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya, matematika, axborot texnologiyalari sohalarida) ma'lumotga yoki xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalarida olingan hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida tan olingan oliy (iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya, matematika, axborot texnologiyalari sohalarida) ma'lumotga ega bo'lishi;

(21-bandning "a" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 13-dekabrda 76-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 1982-2, 22.12.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.12.2021-y., 10/21/1982-2/1180-son)

Oldingi tahrirga qarang.

b) yuridik shaxsning moliyaviy va iqtisodiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan 1 yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lishi (yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar lavozimlaridagi ish staji hisobga olinmaydi).

(21-bandning “b” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 13-dekabrda 76-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1982-2, 22.12.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.12.2021-y., 10/21/1982-2/1180-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Bunda, mas‘ul shaxs quyidagilardan biriga ega bo‘lgan taqdirda, unga ish stajiga ega bo‘lish bo‘yicha talab qo‘yilmaydi:

“Sertifikatlangan ichki auditor (CIA)” yoki “Sertifikatlangan moliyaviy tahlilchi (CFA)” xalqaro sertifikatlari;

“Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)”, “Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ACCA)”, “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)” yoki “Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (CPA)” xalqaro buxgalterlik sertifikatlari;

“Sertifikatlangan risk menejeri (CRM)” yoki “Moliyaviy risk menejeri (FRM)” tavakkalchilikni boshqarishga oid xalqaro sertifikatlari.

(21-band O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 13-dekabrda 76-sonli buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 1982-2, 22.12.2021-y.) asosan xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.12.2021-y., 10/21/1982-2/1180-son)

22. Mas‘ul shaxs etib, ushbu shaxs tomonidan amalga oshirilgan harakatlar yuridik shaxsni bankrotlikka yoki uni majburiy tugatish to‘g‘risida sud tomonidan qaror chiqarilishiga olib kelganligi bo‘yicha ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan hollarda, bankrot deb topilgan yoki sud tomonidan uni majburiy tugatish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan paytgacha bir yil mobaynida yuridik shaxsning rahbari, bosh buxgalteri yoki xodimi bo‘lgan shaxs tayinlanishi mumkin emas.

VI. Yakuniy qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

23. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investitsiya faoliyatini cheklab qo‘yish, to‘xtatib turish yoki tugatish sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) qarori yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa tartibda amalga oshirilishi mumkin.

(23-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrda 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

Oldingi tahrirga qarang.

24. Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investitsiya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni saqlash qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(24-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrda 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

Oldingi tahrirga qarang.

25. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

(25-band O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-noyabrda 20-mh-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3338, 30.11.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son)

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 29-son, 340-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.09.2020-y., 10/20/1982-1/1321-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son; 22.12.2021-y., 10/21/1982-2/1180-son)